

YALPI HUDUDIY MAHSULOT

Dastlabki ma'lumotlarga ko'ra, 2020-yilning yanvar-mart oylarida Namangan viloyati bo'yicha yalpi hududiy mahsulot (keyingi o'rinlarda - YaHM) hajmi joriy narxlarda 4 236,9 mlrd. so'mni tashkil etdi va 2019-yilning mos davriga nisbatan 8,6 % ga o'sdi.

2020-yilning yanvar-mart oylari yakunlari bo'yicha aholi jon boshiga YaHM 1 504,4 ming so'mni tashkil etdi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 6,3 % ga oshdi.

O'zbekiston Respublikasi bo'yicha YaIMni shakllantirishda Namangan viloyatining qo'shgan hissasi 3,8 % ni tashkil etdi.


Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha YaHMni ishlab chiqarish

	<i>Mrd. so'm</i>		<i>2019-yil yanvar- martga nisbatan % da</i>
	<i>2019-yil yanvar-mart</i>	<i>2020-yil yanvar-mart</i>	
I. YaHM	3 332,7	4 236,9	108,6
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 157,1	4 080,3	108,4
Mahsulotlarga sof soliqlar	175,6	156,6	112,4
II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	3 157,1	4 080,3	108,4
Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi	793,3	977,3	104,0
Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)	716,5	1 087,8	123,9
sanoat	510,0	785,8	119,9
qurilish	206,5	302,0	133,9
Xizmatlar	1 647,3	2 015,2	103,7
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	359,1	427,1	105,0
tashish va saqlash, axborot va aloqa	268,9	314,4	107,1
boshqa xizmat tarmoqlari	1 019,3	1 273,7	102,3

Hudud iqtisodiyotining asosiy tarmoqlarida kuzatilgan o'sish sur'atlari YaHM o'sishida asosiy omil bo'lib xizmat qildi. Jumladan, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'ining o'sish sur'ati 104,0 %, (YaHM tarkibidagi ulushi – 24,0 %), sanoat – 119,9 % (19,3 %), qurilish – 133,9 % (7,4 %), savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar – 105,0 % (10,5 %), tashish va saqlash, axborot va aloqa – 107,1 % (7,1 %) va boshqa xizmat tarmoqlari – 102,3 % (31,1 %) ni tashkil etdi.

**2020-yilning yanvar-mart oylarida YaHMning iqtisodiy faoliyat turlari
bo'yicha o'sish sur'atlari**

(o'tgan yilning mos davriga nisbatan % da)




Hudud iqtisodiyotining barcha tarmoqlarida yaratilgan yalpi qo'shilgan qiymat (YaQQ) hajmi umumiy YaHMning 96,3 % ini, mahsulotlarga sof soliqlar esa 3,7 % ini tashkil etdi.


Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining YaHM tarmoqlar tarkibidagi ulushi 1,1 % punktga kamaydi va hisobot davrida 24,0 % ni tashkil etdi. Sanoat (qurilishni qo'shgan holda) tarmog'ining ulushi 4,0 % punktga o'sdi va 26,7 % ni tashkil etdi. Xizmatlar sohasining YaHM tarkibidagi ulushi 2020-yilning yanvar-mart oylarida 49,3 % ni tashkil etdi va 2019-yilning yanvar-mart oylari (52,2 %) bilan taqqoslaganda 2,9 % punktga kamaydi.

Yalpi hududiy mahsulotning tarmoqlar bo'yicha tarkibi
(jamiga nisbatan % da)

2019-yil yanvar-mart




2020-yil yanvar-mart



- Mahsulotlarga sof soliqlar
- Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati
- Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi
- Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)
- Xizmatlar

Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlarning YaHM tarkibidagi ulushi 10,5 % (2019 yilning yanvar-mart oylarida 11,4 %) ni, tashish va saqlash, axborot va aloqa 7,7 % (8,5 %) ni, boshqa xizmat tarmoqlari 31,1 % (32,3 %) ni tashkil etdi.

Xizmatlar sohasining yalpi qo'shilgan qiymati tarkibi
(jamiga nisbatan % da)



- Savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar
- Tashish va saqlash, axborot va aloqa
- Boshqa xizmat tarmoqlari